

МАКТАБГАЧА ТА`ЛИМ TASHKILOTLARIDA TURLI YOSH GURUHLARDA SAXNALASHTIRISHNING VAZIFALARI

Satimboyeva Xurshidaxon Anvarjon qizi

University of economics and pedagogy assistent o`qituvchisi

Mirzayeva Fotima

University of economics and pedagogy maktabgacha ta`lim yo`nalishi talabasi

Аннотация. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida turli yosh guruhlarida umumlashtirish vazifalari ko'rib chiqilgan. U erta bolalik ta'limida umumlashtirishning ahamiyatini o'rganadi va turli yosh guruhlaridagi bolalarning rivojlanish ehtiyojlari va qobiliyatlarini ta'kidlaydi. Maqolada o'qituvchilarning yoshga mos faoliyat, ijtimoiy o'zaro ta'sirlar, o'yinga asoslangan ta'lim va individual o'qitish orqali umumlashtirish ko'nikmalarini osonlashtirishdagi roli ta'kidlangan. Umumlashtirish vazifalarini tushunib, o'qituvchilar bolalarning hal qiluvchi dastlabki yillarida kognitiv, ijtimoiy va hissiy o'sishini samarali qo'llab-quvvatlashlari mumkin.

Калит so'zlar: umumlashtirish, yosh guruhleri, Maktabgacha ta'lim tashkilotlari, erta bolalik ta'limi, rivojlanish ehtiyojlari, qobiliyatlari, tarbiyachilari, faoliyati, ijtimoiy o'zaro munosabatlari, o'yinga asoslangan ta'lim, individual o'qitish, kognitiv rivojlanish, ijtimoiy rivojlanish, hissiy rivojlanish.

Аннотация: В данной статье рассматриваются задачи обобщения в разных возрастных группах дошкольных образовательных организаций. В нем рассматривается важность обобщения в дошкольном образовании и освещаются потребности и способности детей в различных возрастных группах в области развития. В статье подчеркивается роль педагогов в развитии навыков обобщения с помощью соответствующих возрасту видов деятельности, социальных взаимодействий, обучения на основе игр и индивидуального обучения. Понимая задачи обобщения, педагоги могут эффективно поддерживать когнитивный, социальный и эмоциональный рост детей в течение их важнейших ранних лет.

Ключевые слова: Обобщение, Возрастные группы, Дошкольные образовательные организации, Дошкольное образование, Потребности в развитии, Способности, Педагоги, Деятельность, Социальные взаимодействия, Игровое обучение, Индивидуализированное обучение, Когнитивное развитие, Социальное развитие, Эмоциональное развитие.

Annotation: This article delves into the tasks of generalization in different age groups within preschool educational organizations. It examines the importance of generalization in early childhood education and highlights the developmental needs

and abilities of children in various age groups. The article emphasizes the role of educators in facilitating generalization skills through age-appropriate activities, social interactions, play-based learning, and individualized instruction. By understanding the tasks of generalization, educators can effectively support children's cognitive, social, and emotional growth during their crucial early years.

Keywords: Generalization, Age Groups, Preschool Educational Organizations, Early Childhood Education, Developmental Needs, Abilities, Educators, Activities, Social Interactions, Play-based Learning, Individualized Instruction, Cognitive Development, Social Development, Emotional Development.

Har bir tashkilotlarida turli yosh guruxlarda saxnalashtirishning vazifalari o'ziga xos va mos milliy xarakterga ega. Dunyo sivilizatsiyasi tarixida barkamol insonni tarbiyalashni vositasi sifatida quyidagi qo'g'irchoq teatrlari tashkil etilgan.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida turli yosh guruxlarda saxnalashtirishning shakllantirish turli yo'llar, shakllar va vositalar yordamida amalga oshiriladi. Shu jihatdan olib qaralganda, qo'g'irchoq teatri – estetik tuyg'ularni, bolalarning qiziquvchanligi va tasavvurini rivojlantirish uchun juda qulay vosita hisoblanadi. Axloqiy-estetik sifatlar bolalarda go'zallik xaqidagi bilimlar, hayot voqyeli, buyumlar, ularning rang-barangligi, turlarini, o'zini tuta bilishni, muloqotga kirishuvchanlik, yaxshi-yomonni farqlash, o'z-o'ziga baxo berish kabilarni tarbiyalash masalasini o'z ichiga oladi. Inson hayoti o'z-o'zini anglashdan boshlab, jismoniy, aqliy va ijtimoiy kamolotga erishuv jarayoni amalga oshishi tugallanadi” bolalar bog'chasida, ahloqiy tarbiya berishda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

✓ kichik, o'rta, katta gurux bolalari uchun sodda elementlar ahloqiy tushunchalar xaqida ma'lumot berish;

✓ har bir o'rgatiladigan u yoki bu fazilatlar rasmlar, mul'tfilm, AKT va bolalarni jonli harakatlari orqali tushuntirish;

bola doimiy ravishda “ nima yaxshi”, “ nima yomon ” ma'nosini anglab o'z fikrini sodda bayon etish”

Maktabgacha yoshdagi bolalarni teatr tomoshalariga oshno qilish, ularning qo'g'irchoq o'yinlarini tashkil qilishdan maqsad:

- bolalar uchun ijodkorlik, faollikni ta'minlovchi shart-sharoit yaratish;
- teatr ko'rish odobiga o'rgatish;
- teatr tomoshalri jarayonida bolalarning nutqi va jismoniy rivojlanishidagi uzviylikni ta'minlash;
- xalq yaratigan boy merosimizga bo'lgan muhabbat hissini uyg'otish;
- qo'g'irchoq teatrini ota-onalar bilan hamkorlikda tashkil qilish imkoniyatini yaratishdan iboratdir.

Har bir qo'g'irchoq teatri bolaning **ruhiyatiga** quyidagicha ta'sir ko'rsatadi:

- qo'g'irchoq teatri uchun tanlangan ertak bolaning yosh va bilim saviyasiga mos bo'lsa bolada butun vujudi bilan uni ko'rish va unga nisbatan qiziqish paydo bo'ladi;
- kuzatishlarimizdan ma'lumki, ayrim bolalarda ertak qahramoniga nisbatan ruhi tetiklik yoki qo'rqish, nafrat, ko'ziga yosh olish yoki kulib yuborish kabi emotsional xolatlar namoyon bo'ladi;
- qo'g'irchoq teatri yakunida o'tkazilgan suhbatda bolalar qo'g'irchoq teatrida ko'rganlari haqida qiziqish va xursandchilik bilan qo'g'irchoq teatrini doimo ko'rishga xohish bildiradilar.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qo'g'irchoq teatrlarini tayyorlash va tomoshalar ko'rsatish mazmunini bosqichma-bosqich amalga oshirish ijobiy imkoniyat beradi:

Birinchi bosqich.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida qo'g'irchoq teatrini saxnalashtirish va tayyorlashda jihozlar ya'ni moddiy ta'minotni amalga oshirishda:

- manba tanlash (ertak tanlash). Tanlangan ertak bolaning yoshiga mos kelishi;
- musiqa tanlash;
- qo'g'irchoq teatrini saxnalashtirish rejasini tuzish.

Ikkinchi bosqich:

- ko'zlagan maqsadga erishishda ertak mazmuniga ko'ra qahramonlarni tanlash va so'zlarini yod oldirish;
- qo'g'irchoqlarni yasash va kiyintirish;
- tarbiyachi bilan hamkorlikda sh'erni yod olish.

Uchinchi bosqich:

- tarbiyachi va bolalar bilan hamkorlikda teatr turiga ko'ra ertakni sahnalashtirish;
- qo'g'irchoq teatrini namoyish, bolalarni qiziqishlari va ularga yoqqan qahramonlar haqidagi fikrlarini aniqlash.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qo'g'irchoq teatrini saxnalashtirishdan samarali foydalanish bolalarda katta zavq bag'ishlaydi hamda ularning hayotini yanada quvnoq bo'lishini ta'minlaydi.

Biz tadqiqot doirasida har bir guruhning yoshi, saviyasi, qiziqishiga ko'ra quyidagilarga amal qildik.

1. Turli yosh guruxlarda saxnalashtirish

Kichik yoshdagi bolalar guruhidasaxnalashtirish:

- ✓ teatr haqidagi dastlabki tasavvurlarni rivojlantirish;
- ✓ ertak qahramonlarining nomlarini bilish;

- ✓ teatr ko‘rish odobi, tartib-qoidalari haqida ma'lumotga ega bo‘lish;
- ✓ teatr qahramonlarining so‘zlarini tarbiyachi hamkorligida yod olish;
- ✓ soya teatrlariga tayyorlangan andozalarni bo‘yash, tartibli ravishda joylashtirish.

O‘rta yoshdagi bolalar guruhidasaxnalashtirish:

- ✓ bolalarning qo‘g‘irchoq teatri haqidagi tasavvurlarini shakllantirish;
- ✓ sahnada hayvonlar va ertak qahramonlarini ko‘rsatib, ularni harakatga keltirish;
- ✓ aktyor sifatida o‘zlarini erkin tutishlariga imkon yaratish;
- ✓ teatr ko‘rish odobiga o‘rgatish;
- ✓ tarbiyachi yordamida dekoratsiyalar tayyorlashda mustaqillik kabi sifatlarga ega bo‘lish.

Katta yoshdagi bolalar guruhidasaxnalashtirish:

- ✓ teatrda aktyorlarning so‘zlashi, qo‘shiqlar kuylashi haqida tushuncha hosil qilish;
- ✓ ertakdan ixtiyoriy rol tanlash;
- ✓ tomoshaga tanlangan ertaklarni mazmunan kengligi hamda rollarni bajarishda hamkor tanlashning ixtiyoriyligiga e‘tibor qaratish;
- ✓ bolalarga qo‘g‘irchoqlarni mustaqil yasashi, kiyim tanlashiga imkon berish.

Tayyorlov yoshidagi bolalar guruhidasaxnalashtirish:

- ✓ bolalarning teatr haqidagi dastlabki bilimlarini mustahkamlash;
- ✓ qo‘g‘irchoq teatri-san‘at turlaridan biri ekanligini bolalarga tushuntirish;
- ✓ teatr san‘atiga qiziqish uyg‘otish.

Bu davrda bolalarda qo‘g‘irchoq teatri vositasida moddiy va ma‘naviy hayot haqida quyidagi tasavvurlarni shakllantirish muhim:

- ✓ teatrda go‘zal tabiatning tasviri va undan zavqlanish;
- ✓ qadim zamonlardagi voqeya va xodisalarning abadiy tasviriga munosabat bildirish;
- ✓ qahramonlarning xatti-harakatlari ko‘ra “yaxshi” va “yomon” fazilatlarini ko‘ra bilish.

Qo‘g‘irchoq teatrlarini sahnalashtirishda tarbiyachi dastlab har bir guruh bolalarini yoshi, qiziqishiga alohida e‘tibor bergan holda ertak tanlashi muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda shuni ta‘kidlash joizki, tajriba ishlari davomida maktabgacha yoshdagi bolalarni ertaklarni saxnalashtirishga imkon yaratuvchi ertaklarni tanlashni ma‘qul topdik. Bular: “Ipak yo‘li ertaklari” ya‘ni unda 32 davlat ertaklari jamlangan. “O‘zbek xalq ertaklari”, “Rus xalq ertaklari” hamda takomillashtirilgan “Ilk qadam” o‘quv dasturidan ham keng foydalanildi.

1. Kichik yoshdagi (3-4) bolalar uchun ertaklarni saxnalashtirish:

- “Fil bilan xo‘roz” (xalq ertagi).
- “Bo‘ri bilan echki” (xalq ertagi).
- “Nasibaning olmasi” (Sh.Sa'dulla).

2. O‘rta yoshdagi (4-5) bolalar uchun ertaklarni saxnalashtirish:

- “Quyjon va laylakvoy” (xalq ertagi).
- “Aqlli qarg‘a” (xalq ertagi).
- “Qizaloq va ayiqcha” (rus xalq ertagi).
- “Qizg‘anchiq it” (xalq ertagi).

3. Katta yoshdagi (5-6) bolalar uchun ertaklarni saxnalashtirish:

- “Qarg‘aboy” (xalq ertagi).
- “Ur to‘qmoq” (xalq ertagi)
- “Non isi” (A.Navoiy)
- “Ninachi va chumoli” (rus xalq ertagi).

4. Maktabga tayyorlov yoshidagi (6-7) yoshdagi bolalar uchun ertaklarni saxnalashtirish:

- “Egri va To‘g‘ri” (xalq ertagi).
- “Yolg‘on do‘st” (A.Avloniy).
- “Zumrad va Qimmat”(xalq ertagi).
- “Oltin tarviz”(xalq ertagi).
- Tulki va turna (xalq ertagi).

Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan olib brogan pedagogik jarayonimiz natijasida shunday xulosaga keldikki, Bolalarda o‘yinga bo‘lgan ehtiyoj, shubhasiz, katta va u juda erta namoyon bo‘ladi. Ikki-uch yoshidayoq kichkintoylar sakrayotgan quyoncha va ona tovuqqaergashayotgan jo‘jachalarni tasvirlaydi. Ular jon-dili bilan kuchukcha, mushukcha, uloqchalar qiyofasiga kiradi. Ular imitatsiyalash va taqlidiy harakatlarni bajaradi, bu harakatlar hamisha rejali, ammo favqulodda boy va shu sababli o‘zida katta emotsional quvvatni jamlaydi.

Teatrlashtirilgan o‘yinlar bolalarni hamma vaqt o‘ziga jalb qiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar o‘yinga jon-dili bilan kirishadi: qo‘g‘irchoqlarning savollariga javob beradi, ularning iltimoslarini bajaradi, maslahatlar beradi, u yoki bu obrazga –kiradil. Kichkintoylar personajlar bilan birga kuladi, ular bilan birga qayg‘uradi, ularni xavf- xatardan ogoh qilishga intiladi, sevgan qahramonining muvaffaqiyatsizligidan birga ko‘z yoshi to‘kadi, hamma vaqt unga yordamga tayyor turadi.

Teatrlashtirilgan o‘yinlarda qatnashib, bolalar atrof olam: obrazlar, ranglar (bo‘yoqlar), tovushlar bilan tanishadi. Teatrlashtirilgan o‘yinlarning bola shaxsigakatta va har tomonlama ta‘siri undan kuchli pedagogik vosita

sifatida, ortiqcha majburlashsiz, foydalanish imkonini beradi, Chunki kichkintoy o‘yin vaqtida o‘zini erkin his qiladi.

Boy ichki dunyo egalari, nutqni mukammal egallagan, ammo shu qadar uyatchan, o‘ziga ishonmaydigan, omma oldida nutq so‘zlashga odatlanmagan kishilar uchraydiki, ikki-uchta notanish kishining borligi ularning lom-mim deyolmayqolishiga sabab bo‘ladi. Bunga qarshi kurashish, bolalarda o‘zi va o‘z kuchiga ishonchni rivojlantirish zarur. Omma oldida nutq so‘zlash odatini insonda kichikyoshdan notanish auditoriya oldida nutq so‘zlashga o‘rgatish yo‘li bilan shakllantirish mumkin. Buni teatrlashtirilgan faoliyatda ajoyib tarzda amalga oshirish mumkin. Bola M.T.T.dayoq umum (ko‘pchilikning) ishida qatnashayotganini anglab yetishi, ularning xatti-harakati hammada qiziqish uyg‘otayotgani, bundan boshqalar manfaatdor ekani, ular hammani qiziqtirishi mumkin va kerak bo‘lgan harakatlarni amalga oshirayotganini tushunib yetishi juda muhim. Kichik sahnalarni o‘ynab, boshqa qiyofalarga kirib, bolalar nutqini sayqallashtiradi, ularda o‘ziga ishonch, topqirlik rivojlanadi, ijod uchun imkoniyatlar ochiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xasanova Sh.T. Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o‘rgatish. Tafakkur. T.: 2020.
2. Sodiqova Sh.A. Maktabgacha pedagogika. T.: Tafakkurbo‘stoni 2013
3. .N.Kayumova. Maktabgacha pedagogika. T.: TDPU 2013